

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.26/04.07.2023.T.11.03 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

**O‘RINOV MURODJON ZAYNI O‘G‘LI**

**QUYOSH FOTOELEKTRIK MODULLARI YORDAMIDA SHAHAR  
TURAR-JOYLARINING EKSPLOATATSIYA SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH**

18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar-joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi (texnika fanlari)

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent 2025**



**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi****Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам****Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences****O'rinov Murodjon Zayni o'g'li**

Quyosh fotoelektrik modullari yordamida shahar turar-joylarining ekspluatatsiya samaradorligini oshirish..... 5

**Уринов Муроджон Зайни угли**

Повышение эффективности эксплуатации городских жилых зданий с помощью солнечных фотоэлектрических модулей ..... 25

**Urinov Murodjon Zayni ugli**

Improving the operational efficiency of urban residential buildings through solar photovoltaic modules ..... 50

**E'lon qilingan ishlar ro'yhati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 54

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.26/04.07.2023.T.11.03 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

**O‘RINOV MURODJON ZAYNI O‘G‘LI**

**QUYOSH FOTOELEKTRIK MODULLARI YORDAMIDA SHAHAR  
TURAR-JOYLARINING EKSPLUATATSIYA SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH**

18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar-joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi.

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T5798 bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda o'zbek, rus, ingliz (rezyume), Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://taqu.uz/interaktiv-xizmatlar/taqu-ilmiy-faoliyati/ixtisoslashgan-kengashlar/avtoref.html>) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xotamov Asadulla Toshtemirovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Shukurov Ilhomjon Sadriyevich**, texnika fanlari doktori, professor  
**Dusatov Botir Eshdavlat o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**«O'zshaharsozlikLITI» DM**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi PhD 26/04.07.2023.T.11.03 raqamli ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashning 2025 yil «30» «09» kuni soat 13-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangi shahar ko'chasi 9-uy, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti majlislar zali. Tel.: +998 (55) 508 02 56. e-mail).

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№171 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani Yangi shahar ko'chasi, 9-uy. tel.: +998 (71) 142 65 85).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «18» «09» kuni tarqatildi.

(2025 «28» «08» gi №8/2025-3 raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.X. Yunusov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, a.f.d., dotsent

**F.A. Abdixalilov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

**I.S. Shukurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor



## KIRISH (fan nomzodi Phd) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda quyosh energiyasidan keng miqyosda amaliy foydalanishning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri – shaharsozlikda muqobil energiya manbalaridan energiya olish uchun quyosh fotoelektrik modullaridan foydalanishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda «... qayta tiklanuvchi energiya manbalardan elektr energiyani ishlab chiqarish yiliga 7% ga o‘tib kelmoqda, shundan shamol va quyosh energetikasining ulushi 60% ni tashkil etmoqda. 2030 yilga kelib, nol emissiya ssenariysida ishlab chiqarishning 60% dan ortig‘ini qayta tiklanadigan energiya manbalarini tashkil etishi belgilangan»<sup>1</sup>. Bu borada, jumladan quyosh fotoelektrik modullarini shahar turar-joylariga o‘rnatish, ularning tutash hududlarini modernizatsiya qilish, energetik holatni tahlil etish va modellashtirish asosida energiya samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonning yetakchi ilmiy markazlarida quyosh energetikasida qo‘llaniladigan quyosh fotoelektrik modullarini loyihalash, shu jumladan uzluksiz elektr manbalarining yangi konstruksiyalari va ularni hisoblash usullarini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1973 yil Nigeriyada va Parijda “Quyosh inson uchun xizmatda” mavzusida xalqaro kongress o‘tkazildi. Bu simpoziumlarning barchasi muqobil energiya olishning boshlanishi bo‘ldi. Shuningdek, bu borada rivojlangan quyosh fotoelektrik modullari va ulardan shaharsozlikda muqobil energiya manbalarini hosil qilish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilmoqda. Shu bilan birga, quyosh fotoelektrik modullari yordamida shahar turar-joylarining ekspluatatsiya samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish va samaradorligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish va ularni amalga qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta‘minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish»<sup>2</sup> bo‘yicha vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan quyosh fotoelektrik modullarining samaradorligini oshirish, ularning asosiy parametrlarini optimallashtirish, quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish jarayonlarini modellashtirish yechimlarini ishlab chiqish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yilga “Atrof muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb nom berilganligi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni<sup>3</sup>, 2025 yil 11 martdagi PQ-100-son “Uy-joy hamda bino-

---

<sup>1</sup> [https://mmi.fem.sumdu.edu.ua/sites/default/files/mmi2015\\_3\\_84\\_104.pdf](https://mmi.fem.sumdu.edu.ua/sites/default/files/mmi2015_3_84_104.pdf)

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni.

inshootlarni issiqlik energiyasi bilan ta'minlash sohasini tubdan isloh qilish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori<sup>4</sup>, 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son "«O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida"gi farmoni<sup>5</sup>, 2023 yil 16 fevraldagi PQ-57-son "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori<sup>6</sup>, 2022 yil 9 sentabrdagi PF-220-son "Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va kam quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori<sup>7</sup>, 2023 yil 31 maydagi PQ-171-son "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>8</sup> qarorlari hamda farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash konsepsiyasi"<sup>9</sup>, 2024 yil 8 yanvardagi 13-son "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida energiya ta'minotini tashkil etish sohasini tartibga solish va rivojlantirish to'g'risida"<sup>10</sup>, 2023 yil 11 avgustdagi 362-son "Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to'g'risi"<sup>11</sup> va 2019 yil 18 yanvar 48-son "O'zbekiston Respublikasida «Aqlli shahar» texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"<sup>12</sup> gi qarori bo'yicha mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiyasi ishi bo'yicha Respublikasining fan va texnologiyalarni rivojlantirishining IV «Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish, nanotexnologiyalar va qurilmalarni yaratish» ustivor yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Shaharlarda quyosh fotoelektrik modullarining rivojlanishi, ulurning shaharsozlik talablari bo'yicha shaharlarda qo'llanilishi va shahar turar-joylarini ekologik toza energiya manbalari bilan jihozlash masalalari bo'yicha bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan A.K. Raja, A.P. Srivastava, M. Dwivedi, Henrik Personn, Ho Soon Choi,

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-100-son "Uy-joy hamda bino-inshootlarni issiqlik energiyasi bilan taminlash sohasini tubdan isloh qilish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son "«O'zbekiston - 2030» strategiyasi" to'g'risidagi farmoni.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-57-son "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-220-son "Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va kam quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-171-son "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash konsepsiyasi".

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13-son "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida energiya ta'minotini tashkil etish sohasini tartibga solish va rivojlantirish to'g'risida" gi qarori.

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 362–son "Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to'g'risida" gi qarori.

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 48-son "O'zbekiston Respublikasida «Aqlli shahar» texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori.

C.H. Frivold, Geun Young Yun, Mike McEvoy, Koen Steemers, Li Mei, David Infield, Ursula Eicker, Volker Fux, Sung Duk Yoon, Sopharith Vuthy, Jon Uayli, В.А. Веников, Е.В. Путятин, П.С. Непорожный, В.И. Обрезков va boshqalar.

Quyosh fotoelektrik modullarini o'rnatish yordamida shahar turar-joylarini ekspluatatsiya samaradorligini oshirish masalalari respublikamizda deyarli o'rganilmagan sohadir va uni takomillashtirishga O'zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: I.S. Suxanov, M.M. Zaxidov, Yu.K. Rashidov, J.Z. Axadov, N.T. Toshpo'latov, P.I.Kalandarov, D.B. Qodirov, A.I. Anarbayev, S.A. Qodirova, M.T. Abdujabbarova, H.M. Ubaydullayev, M.M. Inog'omova, F.N. Bozorboyev kabi olimlar tadqiqotlarida ayrim jihatlari ochib berilgan. Turar joy maskanlarida binolarning energiya samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi, ularni ufqqa nisbatan optimal joylashtirish, bunda binolarning o'zaro joylashuviga ta'sir etuvchi tabiiy, texnogen va antropogen omillar I.S. Shukurov, A.T. Xotamov, X.F. Allaberganov, B.E. Dusatovlar tomonidan o'rganilmoqda.

Shu bilan birga, shahar turar-joylarining energiya samaradorligi hamda ularning tutash hududlarini quyosh fotoelektrik moduli bilan jihozlash, ularga qo'yiladigan me'yoriy-texnik talablarni optimallashtirish muammolari yetarli darajada o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Shahar infratuzilmasi kafedrasining Bosh ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Quyosh fotoelektrik modullari yordamida shahar turar-joylarining ekspluatatsiya samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- shahar turar-joylarida quyosh panellarini o'rnatish va ularning samaradorligini hisoblash usullari o'rganish;
- quyosh panellari bilan jihozlangan binolardan foydalanish bo'yicha xorijiy tajribalarni tadqiq etish;
- turar joy binolari va ularga tutash hududlarning quyosh nurini qabul qilish vaqtini hisoblash uchun mo'ljallangan matematik model ishlab chiqish va ular asosidagi nazariy tadqiqotlarni olib borish;
- ufqqa nisbatan turli burchaklarda joylashgan shahar turar-joylarini quyosh panellari bilan jihozlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan variantlar bo'yicha shahar turar-joylari ekspluatatsiyasi samaradorligini oshirishni texnik iqtisodiy jihatdan asoslash va atmosferaga chiquvchi CO<sub>2</sub> gaz miqdori kamayishini aniqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Toshkent shahridagi shahar turar-joylari va ularga tutash hududlar qabul qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** shahar turar-joylarida quyosh panellarini o'rnatish orqali elektr energiya bilan ta'minlashning "bino - tutash hudud - quyosh paneli" tizimidagi optimal modellarini ishlab chiqishni tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** mavzuga oid Ilmiy manbalar, maqolalar va adabiyotlarni tahlil qilish, internet resurslarni o'rganish, normativ hujjaatlarni

o'rganish, natural kuzatuv, ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, matematik-statistika usullari, korrelyatsion-regression tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ekspluatatsiyadagi shahar turar-joylari va ularga tutash hududlar energiya iste'moli hisobi bo'yicha tizimlashtirilgan;

shahar turar-joylari va ularga tutash hududlarning quyosh panellari bilan jihozlashning markaziy elektr tarmoqlaridan foydalanishga nisbatan samaradorligi qiyosiy tahlil usullari yordamida nazariy jihatdan asoslangan;

shahar turar-joylari va ularga tutash hududlarning energiyadan uzluksiz foydalanishni tashkil etish uchun quyosh panellaridan foydalangan holda tizimining matematik modeli ishlab chiqilgan;

shahar turar-joylari va ularga tutash hududlarda quyosh panellarini jihozlashning ufqqa nisbatan foydali ish koeffitsenti yuqori bo'lgan holatlari aniqlangan va ularni optimal joylashtirish mexanizmlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

shahar turar-joylari va ularga tutash hududlar holati vizual tahlil qilingan va tadqiqot hududidagi shahar turar-joylarining energiya iste'moli aniqlangan;

quyosh fotoelektrik modul (QFM)ning xorijiy va O'zbekistondagi o'rnatilgan holatlari tahlil qilinib ijtimoiy so'rovnomalar orqali ma'lumotlar bazasi shakllantirilgan;

shakllantirilgan ma'lumotlar bazasi asosida QFM ning bir nechta burchaklarda o'rnatilishi "Global Solar Atlas" dasturi orqali eksperimentlar o'tkazilgan va ularning matematik modeli ishlab chiqilgan;

quyosh fotoelektrik modullari yordamida shahar turar-joylarining ekspluatatsiya samaradorligini oshirish bo'yicha modellar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotlar natijalarining ishonchliligi ularning yuqori darajada asoslanganligi, qilingan farazlarning haqiqiyliги bilan tasdiqlanib, hisob-kitob natijalarining tajriba ma'lumotlari bilan qiyoslanganligi, zamonaviy tadqiqot usullari va asbob-uskunalarini qo'llanganligi bilan ta'minlangan, hamda olingan natijalarda umum qabul qilingan nazariy taqdim etishga zid holatlar yo'qligi bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Respublikamizdagi ekspluatatsiyadagi shahar turar-joylari va ularga tutash hududlarni quyosh fotoelektrik modullari bilan jihozlashning nazariy jihatlarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shahar turar-joylari va ularga tutash hududlarning quyosh fotoelektrik modullari bilan jihozlash orqali matematik modeli hamda uslubiy asoslari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Ilmiy tadqiqot ishi natijalari asosida shahar turar-joylari ekspluatatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi "ToshuyjoyLITI" AJ (2025-yil, 24-aprel 07-04/34-sonli), "O'zshaharsozlikLITI" DM (2024-yil, 24-aprel 20-sonli), "PUKMADALISERVIS" MChJ (2025-yil, 21-aprel 10-sonli), "CONTROLLER ENERGY" MChJ (2025-yil, 14-mart 4/1-sonli) tashkilotlarida joriy qilingan va joriy etish dalolatnomalari olingan.

Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko'chasida joylashgan 65-sonli xonadondagi "CONTROLLER ENERGY" MChJ bilan olib borilgan tadqiqotlariga muvofiq olingan natijalari asosida shahar turar-joylarini quyosh fotoelektrik modullari bilan jihozlash orqali yiliga 296906 kVt soat energiya ishlab chiqarishi, shuningdek yiliga 68,58 tonna CO<sub>2</sub> gazlari qisqartirilishiga erishilgan.

Shuningdek, joriy etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 5-iyundagi 34-06/6294-sonli ma'lumotnomasi olingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-texnik anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishining natijalari 15 ta ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan nashrlarda 4 ta ilmiy maqola shuningdek 2 ta xalqaro: 1 tasi Web of science bazasidagi va 1 tasi yuqori "Impact Factor"ga ega jurnallar, 9 ta tezislari konferensiya materiallarida (ulardan 6 tasi xalqaro konferensiyalarda) va 1 ta darslik chop etilgan. Shuningdek, ilmiy ishga oid O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligidan elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturga № DGU 50255 raqamli Guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 111 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Dissertatsiyaning kirish qismida** tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning I bobi "**Quyosh fotoelektrik modullari yordamida shahar turar-joylarining ekspluatatsiya samaradorligini oshirish**" deb nomlanib, unda Muammoning holati va tadqiqot vazifalari bilan boshlandi. Shahar turar-joylarining zichligi xolatini hududdagi qurilgan kvartiralar soni va ularning o'rtacha o'lchami yillar davomida ortib borayotganligidan ularning zichligi oshayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Toshkent shahrida shahar turar-joylarining ufqqa nisbatan joylashuvi (orientatsiyasi) ularning energiya samaradorligi va yashash qulayligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Sanitar normalar bo'yicha yashash xonalarida 22 martdan 22 sentabrgacha 1 sutkada kamida 2.5 soat quyosh nuri ta'minlashi zarur.


Shu munosabat bilan Toshkent shahrining Yakkasaroy tumanidagi mavjud 21 ta mahallalar va shahar turar-joylarining joylashuvi tahlil etildi. Shuningdek ularning ekspluatatsiyadagi holati vizual tekshirildi (1-rasm).



1-rasm. Yakkasaroy tumanidagi joylashgan tadqiqot ishlari olib borilgan turar-joylar

Shahar turar-joylarini ekspluatatsiya qilish jarayonidagi asosiy muammolar sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin: kommunal tizimlar holati, energiya samaradorligi va isitish tizimi, texnik xizmat ko‘rsatish va remont ishlari, aholiga xizmat ko‘rsatishdagi muammolar, qonuniy va boshqaruv muammolari, ekologiya va atrof-muhit muammolari.

Tadqiqot ishining o‘rganish doirasidan kelib chiqqan holda shahar turar-joylarida issiqlik izolyatsiyasi yetarli darajada tashkil etilmaganligi natijasida issiqlik yo‘qotish yuqori ekanligi hamda fasadlar, tom va umumiy foydalanish joylarining eskirishi aniqlandi. Kuzatuv ishlari raqamli rivojlanish departamenti tomonidan ishlab chiqilgan “AgeTashkent” dasturida aniqlangan 1916-1970 yillarda qurilganligi aniqlangan binolar bilan o‘tkazildi. Ushbu shahar turar-joylari ichidan Shota Rustaveli ko‘chasida joylashgan 65-sonli xonadon tanlab olindi va “AgeTashkent” dasturida orqali ma’lumotlar o‘rganildi. Tanlangan binoning 2024-yil fevral oyidan 2025-yil fevral oyigacha bo‘lgan oraliqda qancha elektr-energiyasi iste’mol qilganligi Yakkasaroy tuman elektr tarmoqlari korxonasidan olingan ma’lumotlar asosida tahlil etildi (2-rasm).



2-rasm. 65- conli xonadonning bir yil davridagi energiya sarfi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yilga “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb nom berilganligidan qayta tiklanadigan energiya manbalardan energiya ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish ishlari jadal suratlarda amalga oshirish lozimligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, O

‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiyasi” tasdiqlangan.

Hozirgi kunda jahonda energiya iste'molining qariyb 23 foizi uy-joy sohasiga to'g'ri kelsa, O'zbekiston Respublikasida bu ko'rsatkichlar 40 foizni tashkil qilmoqda. Xususan, Yevropada 1 kvadrat metr uchun energiya sarfi yiliga 120, 150 kilovatt soatni tashkil qilsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 390 kilovatt soatdan oshmoqda.

Shaharsozlikda quyosh panellaridan foydalanish ko'plab afzalliklari tufayli tobora ommalashib bormoqda. Ushbu batareyalar kun davomida quyosh energiyasini saqlashga qodir, so'ngra uni eng yuqori davrlarda yoki quyosh porlamagan paytda ishlatish uchun beradi. Shuningdek, quyosh fotoelektrik modullarining ekspluatatsiya davrida vertikal yuzaga ma'lum bir burchak ostida joylashtirish natijasi ustida chang qoplanishi, panel orqa tomonida haroratning ko'tarilishi, do'l yog'ishi yoki ustini qor qoplashi davrida sikastlanishi kabi muammolar vujudga keladi. Shu muammolarni oldini olish maqsadida xorij tajribalar o'rganildi:

-Alyaskaning Anchorage shahrida joylashgan Activ Solar Ventures kompaniyasi qishda ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun panellarni vertikal ravishda o'rnatishni boshladi;

-Nyu-Yorkda joylashgan Quixotic Systems taxminan 6 dyuym balandlikdagi devorlarga parallel ravishda devor massivlarini o'rnatadi va yopishmaslik uchun panel va bino orasidagi bo'shliq xosil qilingan.

Shaharsozlikda quyosh panellaridan foydalanish jarayonida gorizont tekislikda bir qancha muammolar yuzaga keldi. Shuning uchun ularni vertikal holatda o'rnatish hamda energiya olish imkoniyati mavjud ekanligini Quixotic Systems Nyu-Yorkdagi binolari misolida ko'rdik.

Quyosh panellaridan maksimal darajada foydalanish uchun birinchi navbatda elektr energiyasini ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olish kerak:

- tomning turi va burchagi;
- hududni yoritish;
- quyosh panellarining turi (polikristal yoki monokristal);
- quyosh panellarini joylashtirish (tomga, devorga yoki yerga);
- quyosh elektr stantsiyasining turi (ongrid, ofgrid, gibrid);

Shuningdek, binolarni quyosh panellarini bilan jihozlashga qo'yiladigan asosiy talablarini PUZ-2011 "Elektr o'rnatish qoidalari", QMQ 3.05.06-97 "Elektr qurilmalari", QMQ 2.04.17-19 "Turar-joy va jamoat binolarining elektr jihozlari", ShNQ 2.04.15-23 "Fotoelektrik stantsiyalar (tizimlar)", Gost 22483-2012 "Kabellar, simlar va simlar uchun o'tkazgichlar", VSN 370-93 "Ishlarda elektr simlarini yotqizish bo'yicha ko'rsatmalar" kabi normalari va qoidalaridan olingan ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi zarur.

"Hindistondagi fotoelektrik tizimlarni bino va shahar tizimlariga integratsiyasi" nomli loyihasida binoda o'rnatilgan fotovoltaik tizimlarini tomlar, fasadlar va tashqi elementlar bo'yicha tasniflab, IEC 63092-1 Standarti asosida turli qo'llanilishlari keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning II bobi "**Quyosh fotoelektrik modullarini o'rnatish yordamida shahar turar-joylarining ekspluatatsiya samaradorligini nazariy va eksperimental tadqiq etish**" deb nomlanib, quyosh fotoelektrik modullaridan

ekologik toza qayta tiklanuvchan elektr energiyasini olish bugungi kunda butun dunyoda dolzarb masalaga aylanmoqda.


Tadqiqot jarayonida quyosh fotoelektrik modulidan energiya olish samaradorligi muhim omil hisoblanganligi sababli Yuldoshev I.A., Sultonov M.Q., Yuldoshev F.M., olimlarning “Quyosh energetikasi” nomli darsligida “Quyosh nurlanishining tushish burchagi va qabul qilgich maydonchani gorizontalga nisbatan qiyalik burchagini aniqlash usullari” bo‘limi o‘rganildi. Ma’lum bo‘ldiki Toshkent shahridagi 41°15'52" geografik kengligi uchun qishda, bahorda, kuzda va yozda optimal burchaklar aniqlangan (1-jadval)<sup>13</sup>.

1-jadval

Toshkent shahridagi optimal burchaklar

Yil mavsumlari bo‘yicha gorizontal tekislikga nisbatan FEB o‘rnatishning optimal qiyalik burchagi		
Qishda	Bahor va kuzda	Yozda
~62°	~41°	~20°

Quyosh fotoelektrik modulidan energiya ishlab chiqarishning yuqorida qayd etilgan turlaridan tashqari energiya olishning xalqaro standartlari ham mavjud. Ushbu xalqaro standart IEC 63092-1 binoga o‘rnatilgan quyosh panellari holatida energiya ishlab chiqarishning barcha turlarini tavsiflaydi (3-rasm)<sup>14</sup>.



3-rasm. Binoga o‘rnatilgan turli fotoelektrik modul tizimlarining tasnifi.

Binoga o‘rnatilgan fotoelektrik modul quyosh plitkalari, quyosh fasdlari va quyosh oynalari kabi ko‘plab shakllarga ega bo‘lishi mumkin. Quyosh energiyasi yerga yetib kelganida 19% atrofdagi atmosfera tomonidan, yana 35% bulutlar tomonidan so‘riladi<sup>15</sup>. Quyosh energiyasi yerni faqat uzluksiz isitadi va bu xarajat isrof qilingan energiyani foydali energiyaga aylantirish texnologiyasini talab qiladi, ya’ni biz u bilan foydali narsa qilishimiz kerak. Quyosh ham samarali katta termoyadroviy reaktordir.

<sup>13</sup> Yo‘ldoshev I.A., Sultonov M.Q., Yo‘ldoshev F.M., “Quyosh energetikasi” fanidan darslik, Toshkent - 2022.

<sup>14</sup> Xalqaro standart IEC 63092-1 binoga o‘rnatilgan quyosh panellari holati

<sup>15</sup> Toshpo‘latov N.T., Qodirov D.B., “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari” fanidan “O‘quv qo‘llanma”, Toshkent – 2020,

Respublikamizda ekspluatatsiya qilinayotgan shahar turar-joylarining katta qismini 50-60 yil oldin qurilgan turar-joylar tashkil etadi. Bu jarayonga o'rganilgan xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda shamollatiladigan fasadlar bilan jihozlashni shahar turar-joylarida ekspluatatsiya samaradorligini oshirish masalasida ko'rish mumkin.

Quyosh panellari bino yuziga vertikal holda joylashtirilganda asosan quyosh nurini ko'prok qabul qiluvchi yuza tanlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ushbu holat quyosh panellaridan eng yuqori miqdorda energiya olish uchun asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, quyosh panellaridan energiya olish jarayonida haroratning ko'tarilishi quyosh panellarida qizish holatini yuzaga keltiradi va bu holat natijasida paneldan ishlab chiqarilayotgan energiya miqdorining kamayishiga ta'sir ko'rsatadi. (4-a va b rasm).

a)



b)



4-rasm. Shamollatiluvchi fasadda quyosh panelining o'rnatilishi sxemasi.

Tadqiqot jarayonida ma'lum bo'ldiki vertikal o'rnatilgan quyosh panelining tashqi harorat  $0\text{ }^{\circ}\text{C}$  bo'lsa, quyoshli sharoitda panellar orqasidagi harorat  $10\text{-}20\text{ }^{\circ}\text{C}$  oralig'ida bo'lishi hamda Soyali sharoitda esa orqa tomoni tashqi haroratga yaqin bo'lishi aniqlangan<sup>16</sup>.

Toshkent shahrida ham quyosh panellaridan elektr energiyasini ishlab chiqarish miqdorini oshirish maqsadda Toshkent shahri aholisining fikrlarini sotsial so'rovnomaga o'tkazish orqali o'rganib chiqildi.


O'raganishlar jarayonida binolarda quyosh panellarini o'rnatish uchun qaysi qismi yetarli deb hisobalanishi haqida ham fikrlar o'rganildi. Ma'um bo'ldiki 53,7% ishtiroqchi "Tom" qismida, 41,3% ishtirokchi "Tom+Fasad" qismida va soha mutaxassislari tomonidan esa "Bino tom qismi yetarli emas 1 kv.t panel 4 metr kvadrat joyni egallaydi kotta maydon kerak", "Bu binolardagi elektr energiyasiga bo'lgan extiyojga bog'lik" va "Binoning tuzilishi va joylashuviga bog'liq" kabi fikrlar olindi.

"GLOBAL SOLAR ATLAS" dasturi orqali Toshkent shahar Yakkasaroy tumani Shota Rustaveli ko'chasida koordinata nuqtalari ( $41.278815^{\circ}$ ,  $069.247038^{\circ}$ )da joylashgan 65-sonli xonadonga 1-jadvalda keltirilgan natijalardan kelib chiqqan holatda binoga quyosh fotoelektrik modulini o'rnatish holatlarini tahlil qilib chiqildi. Binoning o'lchamlari hisobga olinib tom qismida  $33^{\circ}$  uchun 25 kWh quvvatli elektr stansiyasi va fasad qismiga  $20^{\circ}$ ,  $41^{\circ}$ ,  $62^{\circ}$  va  $90^{\circ}$  uchun 50 kWh quvvatli elektr stansiyasining natijalari tadqiq etildi.

Birinchi holatda yoz mavsumi uchun aniqlangan o'rtacha  $\sim 20^{\circ}$  da o'rnatilgan 50 kVt quvvatli quyosh fotoelektrik moduli orqali dastur asosida 12 oy davomida

<sup>16</sup> Said et al. (2018). "Impact of weather conditions on PV panel temperature: Experimental assessment in different climates", Applied Energy Journal.

72,733 MWh elektr energiyasi ishlab chiqilishi mumkin ekanligi aniqlandi (5-rasm).




5-rasm. Quyosh paneli tomonidan umumiy ishlab chiqarilgan o'rtacha ~ 20° da elektr energiya

Ikkinchi holatda bahor va kuz mavsumlari uchun aniqlangan o'rtacha ~ 41° da o'rnatilgan 50 kWh quvvatli quyosh fotoelektrik moduli orqali dastur asosida 12 oy davomida 73,708 MWh elektr energiyasi ishlab chiqilishi mumkin ekanligi aniqlandi (6-rasm).




6-rasm. Quyosh paneli tomonidan umumiy ishlab chiqarilgan o'rtacha ~ 41° da elektr energiya

Uchinchi holatda qish mavsumi uchun aniqlangan o'rtacha ~ 62° da o'rnatilgan 50 kWh quvvatli quyosh fotoelektrik moduli orqali dastur asosida 12 oy davomida 66,882 MWh elektr energiyasi ishlab chiqilishi mumkin ekanligi aniqlandi (7-rasm).




7-rasm. Quyosh paneli tomonidan umumiy ishlab chiqarilgan o'rtacha ~ 62° da elektr energiya

To'rtinchi holatda xorijiy tajribalar tahlil etilib o'rganilgan holatga muvofiq o'rtacha ~ 90° da o'rnatilgan 50 kWh quvvatli quyosh fotoelektrik moduli orqali dastur asosida 12 oy davomida 46,451 MWh elektr energiyasi ishlab chiqilishi mumkin ekanligi aniqlandi (8-rasm).



8-rasm. Quyosh paneli tomonidan umumiy ishlab chiqarilgan o‘rtacha ~ 90° da elektr energiya

Beshinchi holatda 25 kWh quvvatli quyosh fotoelektrik modulini 33° burchakda o‘rnatish hisoblandi va shunga ko‘ra yillik 37,132 MWh elektr energiyasi ishlab chiqilishi mumkin ekanligi aniqlandi (9-rasm).



9-rasm. Quyosh paneli tomonidan umumiy ishlab chiqarilgan o‘rtacha ~ 33° da elektr energiya

Tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ldiki Toshkent shahar Yakkasaroy tumani Shota Rustaveli ko‘chasida koordinata nuqtalari (41.278815°, 069.247038°)da joylashgan 65-sonli xonadonning barcha tomonlarida quyoshning kun davomida nuri mavjudligini hisobga olgan holda keyingi bobda ushbu shahar turar-joylarining samaradorligini oshirish maqsadida matematik modul ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning III bobi **“Quyosh fotoelektrik modullarini o‘rnatish yordamida shahar turar-joylarining ekspluatatsiya samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish”** deb nomlanib, shahar turar-joylarining energiya iste’moli va QFM ga tegishli matematik modeli va uning nazariy taqiqotlariga tegishli tasviyalardan iborat.

Toshkent shahar Yakkasaroy tumani elektr tarmoqlari korxonasining ma’lumotlar bazasidan vizual tekshiruvdan o‘tkazilgan shahar turar-joylari orasidan ixtiyoriy tanlangan №65 xonadonning 2024-2025 yil orasida bir yil davomida iste’mol qilgan elektr energiyasining iste’molini haqidagi ma’lumotlar olindi va 2-jadvalda keltirilgan <sup>17</sup>.

2-jadval

Toshkent shahridagi 65-conli xonadon elektr energiyasi iste’moli

№	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Iste’mol davri	02. 2024	03. 2024	04. 2024	05. 2024	06. 2024	07. 2024	08. 2024	09. 2024	10. 2024	11. 2024	12. 2024	01. 2025
Iste’mol quvvati (kVt/s)	19533	16957	15504	16233	24380	29012	27212	16054	18336	17539	21700	21664

Turli burchaklarda quyosh panellari o‘rnatilganda yillik elektr tejash quyidagicha hisoblanadi<sup>1819</sup>:

$$S = E_{\text{produced}} - E_{\text{demand}} \quad (1)$$

bu yerda:

$S$  – yillik elektr tejash (kWh),

$E_{\text{produced}}$  – quyosh panellaridan ishlab chiqarilgan energiya (kWh),

<sup>17</sup> Toshkent shahar Yakkasaroy tumani elektr tarmoqlari korxonasining ma’lumotlar bazasi

<sup>18</sup> Luque, A., & Hegedus, S. (2011). “Handbook of Photovoltaic Science and Engineering”. John Wiley & Sons.

<sup>19</sup> Lyden, A.; Pepper, R.; Tuohy, P.G. A modelling tool selection process for planning of community scale energy systems including storage and demand side management. Sustain. Cities Soc. 2018, 30.

$E_{demand}$  – binoning yillik elektr iste'moli (kWh).

Agar  $S > 0$ , demak, binoning elektr iste'molining bir qismi quyosh panellari orqali qoplanmoqda.

Alohida o'zgaruvchilarning holatini nazorat qilish murakkab masala, ya'ni bitta o'rganilayotgan omilni ta'sirini baholash uchun barcha sharoitlarni birdek ta'minlab berish mumkin emas. Bunday holatlarda boshqa omillarni modelga kiritib ularning ta'sirini o'rganishga harakat qilinadi, ya'ni quyidagi ko'p omilli regressiya tenglamasi tuziladi (3-jadval):

3-jadval

№	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Ep	3,4	4	5,6	6,6	8	8,5	8,8	8,5	7,4	5,6	3,6	2,9
T	9	10	11	12	13	14	14	13	12	11	10	9

Regressiya koeffitsientlarini baholash vektorini aniqlaymiz. Eng kichik kvadratlar uslubiga ko'ra, vektor  $Y(X)$  ifodadan olinadi (4-jadval):

$$\hat{\beta}_{OLS} = (X^T X)^{-1} \cdot X^T Y \quad (2)$$

$Y$  – Er(KWh);

$X$  – T (soat).

4-jadval

№	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Y	3,4	4	5,6	6,6	8	8,5	8,8	8,5	7,4	5,6	3,6	2,9
X	9	10	11	12	13	14	14	13	12	11	10	9

$X_j$  o'zgaruvchili matrisaga bir elementli ustunni kiritamiz:

$$X = \begin{pmatrix} 1 & 9 \\ 1 & 10 \\ 1 & 11 \\ 1 & 12 \\ 1 & 13 \\ 1 & 14 \\ 1 & 14 \\ 1 & 13 \\ 1 & 12 \\ 1 & 11 \\ 1 & 10 \\ 1 & 9 \end{pmatrix}; \quad Y = \begin{pmatrix} 3,4 \\ 4 \\ 5,6 \\ 6,6 \\ 8 \\ 8,5 \\ 8,8 \\ 8,5 \\ 7,4 \\ 5,6 \\ 3,6 \\ 2,9 \end{pmatrix}$$

$X$  ga transponirlangan  $X^T$  matrisani tuzamiz:

$$X^T = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 1 \\ 9 & 10 & 11 & 12 & 13 & 14 & 14 & 13 & 12 & 11 & 10 & 9 \end{pmatrix}$$

$$\text{Matrisalarni ko'paytiramiz, } (X^T X) = \begin{pmatrix} 12 & 138 \\ 138 & 1622 \end{pmatrix}$$

Teskari matrisa  $(X^T X)^{-1}$  ni to'pamiz:

$$(X^T X)^{-1} = \begin{pmatrix} 3,862 & -0,299 \\ -0,329 & 0,029 \end{pmatrix} \quad \text{va} \quad (X^T Y) = \begin{pmatrix} 72,9 \\ 880,6 \end{pmatrix}$$

Modelning parametrlari quyidagicha topiladi:

$$\hat{\beta}_{OLS} = \begin{pmatrix} 3,862 & -0,329 \\ -0,329 & 0,029 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 72,9 \\ 880,6 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} -7,81 \\ 1,21 \end{pmatrix}$$

Demak regressiya tenglamasi:


$$Y(X) = -7,81 + 1,21 \cdot X$$

$$E_p = -7,81 + 1,21 \cdot T$$

Natijada quyidagi chiziqli model topildi:

$$E_p = -7,81 + 1,21 \cdot T$$

Ushbu modul natijasi quyidagi grafik shakllantirildi (10-rasm)



10-rasm. Modul natijasidagi grafik

Matematik model bo'yicha amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlar jarayonida 5-jadval shakllantirildi va ko'p omilli model orqali 3.3-formulaga ko'ra R-korrelyatsiya koeffitsienti aniqlandi.

5-jadval

S	-3264	267	9843	10396	12367	4520	1588	4288	14946	7564	461	-5300	57676
T	9	10	11	12	13	14	14	13	12	11	10	9	
$E_p$	18400	19800	26800	25900	28600	28900	30600	31500	31000	25900	18000	16400	
$E_d$	21664	19533	16957	15504	16233	24380	29012	27212	16054	18336	17539	21700	


$$E_p = -0,22E_d + 2588 \cdot T \quad (3)$$

natijada  $R=0,93$  ekanligi aniqlandi.

$F_{emp} > F_{tabl}$ , koeffitsientlar statistik jihatdan ahamiyatli va regressiya tenglamasi statistik jihatdan 95% bilan ishonchli ekanligi tasdiqlandi<sup>20</sup>.

Tadqiqot jarayonida Toshkent shahar Yakkasaroy tumani Shota Rustaveli ko'chasida joylashgan 65-sonli xonadon o'rganildi. Natijasida 65-sonli xonadonning yillik energiya iste'moli 244124 kWh ni tashkil etdi.

Umuman olganda, ushbu tajribalar natijasidan yillik 296906 kWh quyosh energiyasi ishlab chiqarildi, bu esa shahar turar-joylari muassasasining energiya mustaqulligini sezilarli darajada oshirishi mumkin (11-rasm).




11-rasm. 65-sonli xonadon iste'moli va ishlab chiqargan elektr energiyasi tahlili

11-rasmda keltirilgan holatdan ma'lumki ishlab chiqarilgan elektr energiyasi iste'moldan ko'ra 18 % ko'p elektr energiya ishlab chiqarilar ekan.

Tadqiqot jarayonida 1 m<sup>3</sup> tabiiy gaz taxminan 8,5 dan 10 kVt·soatgacha energiya ajratadi. 65-sonli xonadonning yillik energiya iste'moli 244124 kWh ni


<sup>20</sup>Гмурман В.Е. "Теория вероятностей и математическая статистика." учебник М.: Высшая школа, 1999 г.

tashkil etdi va bu iste'mol qilinayotgan energiya miqdorini eng past hajmli tabiiy gaz holatida hisoblansa 28 720 m<sup>3</sup> tabiiy gaz sarflanar ekan (12-rasm).




12-rasm. 65-sonli xonadonning yillik energiya iste'moli va uning tabiiy gaz bilan solishtirma holati

Dekarbonizatsiya yani qazib olinadigan yoqilg'iga asoslangan elektr energiyasini qayta tiklanadigan elektr energiyasi ishlab chiqarish bilan almashtirish orqali mahalliy havo ifloslanishini bartaraf etishga yordam beruvchi holatni ko'rib chiqamiz. Ushbu jarayonda quyosh fotoelektrik moduli orqali ishlab chiqarilgan 296906 kWh energiya miqdorini eng past hajmli tabiiy gaz holatida hisoblansa 34 930 m<sup>3</sup> tabiiy gaz tejab qolinishi mumkin ekanligi aniqlandi (13-rasm).



13-rasm. 65-sonli xonadonning yillik energiya ishlab chiqarilishi va uning tejab qoluvchi tabiiy gaz bilan solishtirma holati

Tabiiy gaz (asosan metan – CH<sub>4</sub>) yonishi reaksiyasi:



Bu reaksiyadan ko'rinib turibiki, 1 m<sup>3</sup> metan yonib, 44.64 mol CO<sub>2</sub> ning massasi:

$$m = 44.64 \times 44 = 1964.16 \text{ g} = 1.964 \text{ kg}$$

Demak, 1 m<sup>3</sup> tabiiy gaz yonishi natijasida taxminan 1.964 kg CO<sub>2</sub> hosil bo'ladi

Endi 34 930 m<sup>3</sup> uchun hisoblaymiz:

$$34\,930 \times 1.964 = 68\,579.52 \text{ kg}$$

yoki:  $68\,579.52 \text{ kg} \div 1000 = 68.58 \text{ tonna}$

Hisoblash natijasidan malum bo'ldiki 34 930 m<sup>3</sup> tabiiy gazni yonishi natijasida taxminan 68.58 tonna CO<sub>2</sub> gazi hosil bo'ladi.

Shuningdek, ushbu 65-sonli xonadonda o'rnatilgan QF moduli tomonidan ishlab chiqarilayotgan yillik energiya 296906 kWh ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan yillik energiyani «Quyoshli uy» dasturi asosida "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ kompaniyasiga 1000 so'mdan sotilishi natijasida 296 906 000 so'm xonadonning balansida shakllanishi mumkin. Agar iste'mol uchun to'g'ridan-to'g'ri "Hududiy

elektr tarmoqlari” AJ kompaniyasi sotib olinsa va ishlab chikarilgan energiya “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ ga qayta sotilsa 2 marotaba ko‘proq foyda ko‘rilishi mumkin.

